



XXI ASR JAHON SIYOSATIDA BAG'RIKENGLIK TAMOYILI

Akbarov Sherzodbek Asqarali o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti "Siyosatshunoslik"
yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: 21-asrda jahon siyosati globallashuv, madaniy xilma-xillik va davlatlararo integratsiya jarayonlarida bag'rikenglik tamoyilining ahamiyatini oshirib yubordi. Ushbu maqolada bag'rikenglikning xalqaro siyosatdagi o'rni, turli davlatlar va tashkilotlar misolida uning amalga oshirilishi va bu tamoyilni rivojlantirishga to'siq bo'layotgan muammolar tahlil qilingan. Bag'rikenglikning tinchlik, barqarorlik va xalqaro hamkorlikni ta'minlashdagi roli yoritilib, Yevropa Ittifoqi, ASEAN va BMT kabi tuzilmalar faoliyati misolida tahliliy yondashuv berilgan. Shuningdek, nafrat so'zi, ksenofobiya va diniy radikalizm kabi xavf-xatarlarning bag'rikenglikka salbiy ta'siri ko'rsatilgan. Maqola global miqyosda bag'rikenglik tamoyilining dolzarbligi va uni mustahkamlashning ahamiyatini yoritadi.

Kalit so'zlar: Bag'rikenglik, jahon siyosati, globallashuv, madaniy xilma-xillik, ksenofobiya, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, BMT, dinlararo muloqot, barqarorlik, xalqaro hamkorlik, siyosiy tamoyillar.

Аннотация: В 21 веке мировая политика преувеличила значение принципа толерантности в процессах глобализации, культурного разнообразия и межгосударственной интеграции. В данной статье анализируется роль толерантности в международной политике, ее реализация на примере различных государств и организаций и проблемы, препятствующие развитию этого принципа. Освещается роль толерантности в обеспечении мира, стабильности и международного сотрудничества, дается аналитический подход на примере деятельности таких структур, как Европейский Союз, АСЕАН и ООН. Также показано негативное влияние на толерантность таких опасностей, как слово ненависти, ксенофобия и религиозный радикализм. В статье освещается актуальность принципа толерантности в глобальном масштабе и важность его укрепления.

Ключевые слова: Толерантность, мировая политика, глобализация, культурное разнообразие, ксенофобия, Европейский союз, АСЕАН, ООН, межконфессиональный диалог, стабильность, международное сотрудничество, политические принципы.

Annotation: In the 21st century, world politics exaggerated the importance of the



principle of tolerance in the processes of globalization, cultural diversity and Interstate integration. This article analyzes the role of tolerance in international politics, its implementation on the example of various states and organizations, and the problems that are becoming an obstacle to the development of this principle. The role of tolerance in ensuring peace, stability and international cooperation is highlighted and an analytical approach is given on the example of the activities of structures such as the European Union, the Asean and the UN. It has also been shown that risks such as hate speech, xenophobia, and religious radicalism have negative effects on tolerance. The article highlights the relevance of the principle of tolerance on a global scale and the importance of its strengthening.

Keywords: *Tolerance, world politics, globalization, cultural diversity, xenophobia, European Union, Asean, UN, interfaith dialogue, sustainability, international cooperation, political principles.*

21-asr jahon siyosatida bag‘rikenglik tamoyili insoniyatning tinchlik va taraqqiyot sari intilishlarida asosiy tamoyillardan biriga aylandi. Dunyo o‘zining ko‘p madaniyatli va ko‘p millatli tabiatini namoyon qilar ekan, madaniy xilma-xillikni qabul qilish va hurmat qilish bugungi siyosiy muhitning ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. Bag‘rikenglik tushunchasi, insoniyat taraqqiyotida tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun asosiy vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Bu tamoyil nafaqat inson huquqlarini ta‘minlashning kafolati, balki davlatlar va jamiyatlarning barqarorligini ta‘minlashda ham muhim vositadir.

Bag‘rikenglik tamoyilining rivojlanishiga, 1995-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi muhim hissa qo‘shdi. Ushbu hujjatda bag‘rikenglik insonlarning tabiatdan kelib chiqadigan huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish, xilma-xillikni qabul qilish va ijtimoiy adolatni ta‘minlash vositasi sifatida e‘tirof etildi[1]. Ushbu tamoyillar bugungi kunda ham xalqaro hamkorlik va milliy siyosatlarda o‘z aksini topmoqda. Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida qayd etilganidek, bag‘rikenglik alohida odamlar o‘rtasida, oila va jamoadagi o‘zaro munosabatlarda zarurdir. Maktablarda va universitetlarda, norasmiy ta‘lim yo‘li bilan uyda va ish joylarida bag‘rikenglik ruhini mustahkamlash va kishilar o‘rtasida bir-biriga ochiqlik, e‘tibor va birdamlik munosabatlarini shakllantirish lozim. Bunda, kommunikatsiya vositalari erkin, ochiq muloqot va muhokamaga ko‘maklashishda, bag‘rikenglik qadriyatlarini tarqatishda, ayniqsa, bosh ko‘tarayotgan murosasizlikni targ‘ib qiluvchi guruhlar va mafkuralarga nisbatan befarq munosabatda bo‘lish xavfli ekanini tushuntirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.



Learning and Sustainable Innovation

“Bag‘rikenglik” tushunchasi nimani anglatadi? Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasida ushbu tushunchaga uchta muhim va qamrovdor ta’rif berilgan.

Birinchi ta’rif: Bag‘rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e’tiqod vujudga keltiradi. Bag‘rikenglik –turli-tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma’naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.

Ikkinchi ta’rif: Bag‘rikenglik – yon berish, andisha yoki xushomad emas. Bag‘rikenglik – eng avvalo insonning universal huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabatdir. Hech qanday vaziyatda ham bag‘rikenglik ana shu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarning bahonasi bo‘lib xizmat qilmaydi. Bag‘rikenglikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim.

Uchinchi ta’rif: Bag‘rikenglik – inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm (shu jumladan, madaniy plyuralizm), demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko‘maklashish majburiyatidir. Bag‘rikenglik – aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda o‘rnatilgan qoidalarni tasdiqlovchi tushunchadir. Shuningdek, globalizatsiya sharoitida madaniy xilma-xillikni saqlash va uni hurmat qilish muhim ahamiyatga ega. Bag‘rikenglik tamoyili bu turli madaniyatlarning o‘ziga xosligini tan olish va ularni qadrlashni talab qiladi. YUNESKO tomonidan qabul qilingan “Madaniy xilma-xillikni himoya qilish to‘g‘risidagi deklaratsiya” ushbu tamoyilni global miqyosda mustahkamlashga qaratilgan. Globallashuv jarayonlari davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi bag‘rikenglikni millatlararo birdamlikni mustahkamlash vositasi sifatida faol targ‘ib qilmoqda. 2015-yilda yuzaga kelgan qochoqlar inqirozi davrida bag‘rikenglik siyosati o‘zining muhimligini isbotladi. Yevropa davlatlari turli millatlarga mansub bo‘lgan qochqinlarni qabul qilishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelsa-da, bag‘rikenglikka asoslangan yondashuv xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda asosiy vosita bo‘ldi.

Bag‘rikenglik tamoyilining yana bir yorqin ifodasi Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) misolida ko‘rinadi. ASEAN davlatlari mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda bag‘rikenglikka asoslangan siyosat yuritmoqda. Ushbu tashkilotning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan madaniy xilma-xillikni hurmat qilish mintaqa davlatlarining tinchlik va barqarorligini ta’minlashga xizmat qilmoqda[3].



Bag'rikenglik nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning ham asosi hisoblanadi. Kanadaning ko'pchilik madaniyatli siyosati millatlararo totuvlikni ta'minlashda muhim rol o'ynadi. Ushbu siyosat nafaqat jamiyatdagi madaniy xilma-xillikni saqlashga, balki iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirishga ham xizmat qildi[5].

Dinlararo bag'rikenglik xalqaro munosabatlarda alohida o'rin tutadi. "Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi – xilma-xil diniy e'tiqodlarga mansub kishilarning bir zamon, bir makonda, ya'ni umumiy vatanda, oliyanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi"[6]. Din qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham ularni bir-birlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga yo'nalganligidadir. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. 2019-yilda Vatikan tomonidan o'tkazilgan Dinlararo Muloqot Xalqaro Konferensiyasi ushbu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. Tadbirda dinlararo ziddiyatlarni bartaraf etish va tinchlikni ta'minlash bo'yicha muhim takliflar bildirildi[4].

Biroq, bag'rikenglik tamoyilini rivojlantirish yo'lida bir qator muammolar mavjud. Xususan, millatchilik, ksenofobiya va diniy radikalizm kabi holatlar jamiyatda nizolarni kuchaytirib, tinchlikka tahdid solmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan nafrat so'zi ham bag'rikenglikni rivojlantirishga to'siq bo'luvchi omillardan biridir. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, nafrat so'zining ko'payishi jamiyatlar o'rtasidagi ishonchni kamaytirib, ziddiyatlarni kuchaytirmoqda[2]. Bugungi kunda xalqaro tashkilotlar va davlatlar bag'rikenglik tamoyilini ilgari surish uchun turli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan turli rezolyutsiyalar va dasturlar bag'rikenglik tamoyilini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropa Ittifoqi va ASEAN kabi tashkilotlarning bag'rikenglikka asoslangan yondashuvlari boshqa davlatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, bag'rikenglik tamoyilini rivojlantirishda ta'lim va targ'ibot muhim rol o'ynaydi. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida bag'rikenglik, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar mavzusida darslar o'tkazish zarur va ommaviy axborot vositalari orqali bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib qilish kabi jarayonlar uni rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shadi. Binobarin, Bag'rikenglik tamoyilini global miqyosda rivojlantirish uchun davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va BMT, YUNESKO, boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar bag'rikenglikni targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, 21-asr jahon siyosatida bag'rikenglik tamoyili global tinchlik, ijtimoiy adolat va madaniy hamjihatlikni ta'minlashning asosiy vositasiga aylangan. U



turli millatlar, dinlar va madaniyatlar o'rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlash, ziddiyatlarni bartaraf etish va inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Bag'rikenglik tamoyilini amalga oshirishda ta'lim, xalqaro hamkorlik va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kabi yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu tamoyilni yanada keng targ'ib qilish orqali dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlash mumkin. Ushbu tamoyil nafaqat davlatlararo, balki jamiyat ichidagi munosabatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Bag'rikenglikni mustahkamlash, xalqaro hamjamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali amalga oshirilishi lozim.

REFERENCES

1. BMT - Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi, 1995.
2. YUNESCO - Nafrat tushunchasining ijtimoiy birdamlikka ta'siri, 2021.
3. ASEAN Nizomi, ASEAN kotibiyati, 2008.
4. Dinlararo Muloqot uchun Pontifik Kengash – Tinchlik va totuvlik uchun dinlararo muloqot konferensiyasi, 2019.
5. W.Kymlicka. Multikulturalizm va ijtimoiy davlat: Zamonaviy demokratik davlatlarda tan olinishi va qayta taqsimlanishi, 2010.
6. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston, 2000.